

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 108 396,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,3 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	84 028,9	108 396,2	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	83 308,0	107 506,0	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	720,9	890,2	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	83 308,0	107 506,0	107,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 835,6	9 900,4	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	63 318,0	84 447,4	108,5
sanoat	59 636,7	80 142,3	108,5
qurilish	3 681,3	4 305,1	109,1
xizmatlar	11 154,4	13 158,2	108,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 331,9	3 979,5	108,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 631,7	1 985,9	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	6 190,8	7 192,8	106,3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 98 394,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,1 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,1	99,2
mahsulotlarga sof soliqlar	0,9	0,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10,6	9,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	76,0	78,5
sanoat	71,6	74,5
qurilish	4,4	4,0
xizmatlar	13,4	12,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	3,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2,0	1,8
boshqa xizmat tarmoqlari	7,4	6,8




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 9,2 % ni, sanoat tarmog'i 74,5 % ni, qurilish 4,0 % ni va xizmatlar sohasi 12,3 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 5,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 9,2 %), sanoatda – 108,5 % (74,5 %), qurilishda – 109,1 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (12,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,9 % (3,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (1,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,3 % dan (6,8 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,4 %

YAHM

7,9 %



3,0 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi**

3,6 %



7,8 %

Sanoat

8,5 %



16,3 %

Qurilish

9,1 %



6,6 %


Xizmatlar

8,0 %



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 119,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 123,9 % va xizmatlarda – 109,3 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 24 117,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 21 231,6 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 22,4 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 25,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

21 231,6

25,5 %

2025- yil

24 117,7

22,4 %

